SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Jild 3, Son 6/S

2023

**ISSN:** 2181-1342 (Online)

**Сайт:** https://scienceproblems.uz

**DOI:** 10.47390/SP1342V3I6/SY2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

***№ S/6 (3)-2023***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич –филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа октори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

**Таҳририят манзили:**
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

## *МУНДАРИЖА*

## 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ


*Мамаражабов Бобир Нормўмин ўғли*
САУДИЯ АРАБИСТОНИДАГИ ЎЗБЕК МУҲОЖИРЛАРИ ТАРИХИ: МУВАФФАҚИЯТЛИ АССИМИЛЯЦИЯ ВА ЙЎҚОТИЛГАН МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИК ........ 8-17

*Хайдаров Абдулходи Ахмадали ўғли*
XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИДА ФАРҒОНА ВИЛОЯТИДА БОҒДОРЧИЛИК ВА ТОМОРҚАЧИЛИКДАГИ ЎЗГАРИШЛАР ........ 18-22

*Назаров Азизбек Ёқубжонович*
ТУРКИСТОН ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРЛИГИДА ИЛМИЙ ЖАМИЯТЛАР: ТАРИХШУНОСЛИК ТАҲЛИЛИ ........ 23-31

*Abdulloyev Jamshed Izzatulloyevich*
MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA CHEGARA VA SUV MUAMMOLARINING VUJUDGA KELISH ASPEKTLARI VA BUGUNGI RIVOJLANISH BOSQICHI ........ 32-36

*Пасилов Баҳодир Абдуллаевич*
ЎЗБЕКИСТОН ССРДА СОВЕТ ИҚТИСОДИЁТИ АСОСЛАРИ ШАКЛЛАНИШИНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ (1917-1937 ЙЙ.) ........ 37-41

*Ismailov G‘afurjon Xasanovich*
TURKIYADAGI O‘ZBEK TEKKE (TAKIYA)LARIDAN BIRI “SULTONTEPA TEKKESI” MUSOFIRLAR UCHUN TUTGAN O‘RNI ........ 42-46

*Raxmatulloyev Murodjon Xikmatulloyevich*
BUXORO VILOYATIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHGA OID ISLOHOTLAR ........ 47-50

*Elmurodova Nilufar Baxtiyorovna*
SHARQ VA G’ARB UYG’ONISH DAVRI MADANIYATI: QIYOSIY TAHLIL ........ 51-55

*Нафиддинова Хосият Равшановна*
БУХОРО ВОҲАСИ АҲОЛИСИ ОИЛАВИЙ МАРОСИМЛАРИ ТАРИХИГА ДОИР МАЪЛУМОТЛАР ........ 56-60


## 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ


*Zhang Hongzhi, Wu Bo*
RUMOR RESILIENCE: HOW BUSINESSES ECONOMICALLY RESPOND TO STOCHASTIC RUMOR SPREAD ........ 61-66

*Ibrayimova Dilnoza Abdisheripovna*
MINTAQADA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI ONLINE SAVDO MARKETINGINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI ........ 67-72

*Nayimov Shoxruh*
PROBLEMS OF FORMATION AND MANAGEMENT OF COLLATERAL PORTFOLIO OF A COMMERCIAL BANK ........ 73-79

*Maxkamov Navruzjon Tuxtamishovich*
ISSUES OF APPLICATION OF QUALITY MANAGEMENT IN THE SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF ENTERPRISES AND ORGANIZATIONS FOR THE PURPOSES OF THE DEVELOPMENT STRATEGY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN ........ 80-88

*Рахматуллаев Беҳзод Рахматуллаевич*
ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ УСТУВОР МАСАЛАЛАРИ ........ 89-95

*Abdullayeva Zamira Muxtarovna*
MEHNAT BOZORI TALABLARIGA OLIY TA'LIM XIZMATLARI MODELLARINI MOSLASHTIRISH ........ 96-102

*Имомов Холмурод Норқулович, Шарипов Тўлқин Саидахмедович*
ИҚТИСОДИЁТНИНГ ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШИШИ ШАРОИТИДА ДАВЛАТ-ХУСУСИЙ ШЕРИКЧИЛИГИНИНГ ШАКЛЛАРИ, МОДЕЛЛАРИ ВА МЕХАНИЗМЛАРИ ........ 103-114

*Эргашев Ахмаджон Махмуджон ўғли*
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ФАОЛИЯТИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ РИСКЛАРНИ АНИҚЛАШ ВА БОШҚАРИШ МЕТОДОЛОГИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ........ 115-122

## ***09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ***

*Imomova Nozimaxon Avazxonovna*
JAMIYAT FAROVONLIGI TUSHUNCHASI VA UNING O'ZIGA XOS IJTIMOIY-FALSAFIY XUSUSIYATLARI ........ 123-129

*Qodirov Davronbek Hoshimovich*
ABULQOSIM QUSHAYRIY VA UNING ILMIY FAOLIYATI ........ 130-133

*Jabborova Saodat Sattorovna*
SHARQ MUTAFAKKIRLARINING MA'NAVIY SALOHIYATNI YUKSALTIRISHDA QO'SHGAN HISSASI ........ 134-142

## ***10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ***

*Tuxtasinova Mahliyoxon Shavkatjon qizi*
L.Z.BUDAGOV LUG'ATIDA ESKI O'ZBEKCHA SO'ZLARNING EKVIVALENTLAR YORDAMIDA IZOHLANISHI ........ 143-149

*Narmuratov Zayniddin Radjabovich*
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TA'LIM VA ILM MAZMUNLI FRAZEMALARDA EKVIVALENTLIK MASALASI ........ 150-154

*Urazaliyeva Mavluda Yangiboyevna*
UZBEKCORPUS.UZ PLATORMASIDA MORFOLOGIK TAHLIL INTERFEYSI VA DASTURIY TA'MINOTI ........ 155-160

*Mirzayeva Yelena Sa'dullaevna*
O'ZBEK MENTALITETI VA AXBOROTNI IDROK ETISH ........ 161-166

*Alimjanova Shohsanam Azamat qizi*
INGLIZ TILIDAGI KO'P MA'NOLI IBORALARNI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH

USULLARI ............ 167-171

*Iskandarova Shamsiyabonu Ulug'jonovna*
BADIIY ADABIYOTDA MUALLIF VA TARIXIY QAHRAMON O'RTASIDAGI G'OYAVIY BOG'LIQLIK MASALASI (Laila Lalamining "Mavrning hisoboti" asari tahlili asosida) ............ 172-176

*Hamroqulova Marjona Nabijon qizi*
"MAHBUB UL-QULUB" ASARIDAGI FRAZEMALARNING SEMANTIK-USLUBIY XUSUSIYATLARI ............ 177-181

## 12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

*Зулфикоров Шерзод Хуррамович*
ҚОНУНЧИЛИК ПАЛАТАСИ ҚЎМИТА ВА КОМИССИЯЛАРИДА ДЕПУТАТЛАР ФАОЛИЯТИНИ ЯНАДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ ............ 182-191

*Таллибаев Умиджон Шергазиевич*
ОСОБЕННОСТИ ПРИВЛЕЧЕНИЯ К АДМИНИСТРАТИВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА ПРАВОНАРУШЕНИЯ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИИ. ............ 192-199

## 13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

*Iminakhunova Iroda Huseynovna*
THE MOST IMPORTANT REQUIREMENTS THAT ENSURE EFFECTIVE PEDAGOGICAL CONTROL OF STUDENTS' SELF-EDUCATIONAL ACTIVITIES ............ 200-206

*Usmanaliev Khusniddin*
INTERCULTURAL COMPETENCE IN THE TEACHING PROCESSOF A FOREIGN LANGUAGE ............ 207-219

*Madaminov Uktam Ataxanovich*
ELEKTRON TA'LIM MUHITIDA FANLARNI MOBIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH METODIKASI ............ 220-224

*Yuldasheva Dilfuza Qodirovna*
TURIZM YO'NALISHI TALABALARIGA INGLIZ TILIDA SOHAVIY LEKSIKANI O'RGATISH USULLARI ............ 225-229

*Tohirova Shohsanam Yunusovna*
THE IMPORTANCE OF CASE TECHNOLOGY IN PRACTICAL ENGLISH CLASSES IN NON-PHILOLOGICAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS ............ 230-236

*Nuriddinova Muyassar Muhiddinovna*
ORGANIZING PHYSICAL EDUCATIONAL EVENTS WITH PRESCHOOL CHILDREN ............ 237-242

*Raxmatova Mexrinoz Majitovna*
YOSHLAR MA'NAVIY SALOHIYATINI YUKSALTIRISHDA INNOVASION TARG'IBOT TEXNOLOGIYALARINING SAMARADORLIGI ............ 243-247

*Sheraliyev Odiljon*
TALABALARNING DIGITAL KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI ............ 248-254

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ S/6(3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*07.00.00 – Тарих фанлари*

**Raxmatulloyev Murodjon Xikmatulloyevich**
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

## BUXORO VILOYATIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHGA OID ISLOHOTLAR

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada oxirgi yillarda OAV sohasida va uni erkinlashtirish borasida amalga oshirilgan tub islohotlarning mazmun va mohiyati oʻz aksini topgan. Shuningdek, Buxoro viloyatida ommaviy axborot vositalari tizimini takomillashtirishning muammo va yechimlari koʻrsatib berilgan.

**Kalit soʻzlar:** ommaviy axborot vositalari, hamkorlik, matbuot, axborot, soʻz erkinligini, taraqqiyot, strategiya, jurnalist, matbuot anjumanlari, brifinglar

**Rakhmatulloyev Murodjon Khikmatulloyevich**
Researcher of Bukhara State University

## REFORMS ON IMPROVING THE SYSTEM OF MASS MEDIA IN BUKHARA REGION

**Abstract.** This article reflects the content and essence of fundamental reforms implemented in the field of media and its liberalization in recent years. Also, the problems and solutions of improving the mass media system in Bukhara region have been shown.

**Keywords:** mass media, cooperation, press, information, freedom of speech, development, strategy, journalist, press conferences, briefings

**Рахматуллоев Муроджон Хикматуллоевич**
Исследователь Бухарского государственного университета

## РЕФОРМЫ ПО УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ СИСТЕМЫ СМИ В БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ

**Аннотация.** В данной статье изложены содержание и суть фундаментальных реформ, реализованных в сфере средств массовой информации и ее либерализации за последние годы. Также были раскрыты проблемы и пути решения совершенствования системы СМИ в Бухарской области.

**Ключевые слова:** СМИ, сотрудничество, пресса, информация, свобода слова, развитие, стратегия, журналист, пресс-конференции, брифинги

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3I6/SY2023N07

Keyingi yillarda davlatimizda axborot va soʻz erkinligini taʼminlash, ommaviy axborot vositalari sohasini boshqarish tizimini qayta tashkil qilish, ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muammoli masalalarini hal etishda ommaviy axborot vositalarining ahamiyatini kuchaytirish borasida sezilarli islohotlar amalga oshirildi.

Bu borada Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev quyidagilarni taʼkidlagandilar: "Jamiyatimizda demokratik qadriyatlarni qaror toptirish, fuqarolarimizning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini taʼminlash, dunyoda va mamlakatimizda sodir boʻlayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, voqea-hodisalar haqida tezkor va haqqoniy maʼlumotlar yetkazish borasida siz, matbuot ahlining fidokorona mehnat qilayotganingizni xalqimiz yaxshi biladi va yuksak qadrlaydi [1].

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022 — 2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasida ommaviy axborot vositalarining qonuniy manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish, ular faoliyatini har tomonlama qoʻllab-quvvatlash, kadrlar salohiyati va raqobatbardoshligini yanada oshirish, jurnalistika sohasini rivojlantirishga eʼtibor qaratildi.

Ommaviy axborot vositalari Oʻzbekistonda yashayotgan millatlarning 7ta tilida va siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy, maʼnaviy-maʼrifiy, sport kabi 20dan ortiq ixtisosliklarda faoliyat olib boradi. Bunday salmoqli oʻzgarishlar sohada qonunchilik mexanizmini yanada takomillashtirish, ularning erkin faoliyat yuritishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish lozimligini taqozo etmoqda [2].

Darhaqiqat, ommaviy axborot vositalarining faoliyat olib borishi samaradorligini oshirish va ularga qulay shart-sharoitlar yaratish, davlat va xalq oʻrtasida ular vositachiligida samarali munosabat va muloqotni yoʻlga qoʻyish, keng xalq ommasiga olib borilayotgan islohotlarning mazmun va mohiyati, maqsadi, vazifalari va natijalari haqida tezkor, xolis va toʻliq axborot yetkazish, davlat va xoʻjalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati shaffofligini oshirish, shuningdek, ularning jamoatchilik bilan oʻzaro hamkorlik aloqalarini va axborot xizmatlari faoliyatining samaradorligini oshirishda ham tizimli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Ayniqsa, 27 iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan Buxoro viloyat xalq taʼlimi tizimi faoliyatini keng yoritish, tizimdagi islohotlar targʻibotidagi hamkorligi uchun bir guruh jurnalist va blogerlar munosib taqdirlandi. Bu anʼana maʼnaviy taraqqiyotni taʼminlash va sohani yanada yuksak choʻqqiga olib chiqishda muhim omil boʻlib xizmat qilib kelmoqda. Davlat rahbarining gʻoyasi va tashabbusi bilan joriy etilgan, Oʻzbekistonni har tomonlama taraqqiy ettirish, dunyoning ilgʻor demokratik davlatlari qatoridan joy olishi va jahon maydonida munosib oʻrin egallashi asosiy maqsad etib belgilangan 2022 — 2026 yillarga moʻljallangan Oʻzbekistonning Taraqqiyot strategiyasida ham ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda xolis axborotlarni oʻz vaqtida berib borish orqali yolgʻon maʼlumotlar tarqalishining oldini olishga alohida urgʻu qaratilgan.

2019 yil Prezidentimizning "Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini taʼminlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi qarorida ham davlat organlari va tashkilotlari faoliyati haqida ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, davlat organlari va tashkilotlarining rasmiy veb-saytlari, shuningdek, boshqa axborot resurslari orqali, shu jumladan, matbuot anjumanlari, brifinglar, mediatorlar tashkil etish yoʻli bilan aholiga muntazam, toʻliq va tezkor ravishda axborot taqdim etib borish;

davlat organlari va tashkilotlarida mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy va sosial-iqtisodiy taraqqiyoti jarayoni haqida axborot berish va yoritish boʻyicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish;

davlat organlari va tashkilotlarining ijobiy imijini shakllantirish va ilgari surish, ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazish va boshqa shakllarda jamoatchilik fikrini o‘rganish;

axborot siyosati sohasida zimmasiga yuklangan vazifalarni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (keyingi o‘rinlarda – Agentlik) bilan samarali amaliy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

ommaviy axborot vositalari bilan samarali hamkorlik qilish, axborot xizmatlari bilan doimiy ishlovchi jurnalistlar va blogerlar doirasida tezkor ma’lumotlarni tarqatish, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilishda keng aholi qatlamlarining ishtirokini ta’minlash maqsadida ekspertlar guruhini shakllantirish;

muntazam ravishda ommaviy axborot vositalarida davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining chiqishlarini tashkil etish;

axborot makoni monitoringini olib borish va tahlil qilish, tanqidiy va keng muhokama qilinayotgan axborot xurujlariga tezkor munosabat bildirish, ommaviy axborot vositalari va Internet tarmog‘ida tegishli davlat organlari va tashkilotlari faoliyatiga aloqador axborotni tarqatish bo‘yicha ishlarni tashkil qilish;

davlat organlari va tashkilotlari bilan birgalikda mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari orqali tarqatish uchun xabar, ma’lumot, sharh va boshqa axborot-tahliliy materiallar tayyorlash;

davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati to‘g‘risida jamoatchilik fikrini, milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarining pozitsiyasini o‘rganish, dolzarb takliflar ishlab chiqish va ular to‘g‘risida davlat organlari va tashkilotlari rahbariyatiga axborot berib borish;

davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini xorijiy ommaviy axborot vositalarida sifatli yoritish maqsadida vakolatli vazirliklar va idoralar orqali O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalarini, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning O‘zbekistondagi diplomatik vakolatxonalarini axborot materiallari (bosma mahsulotlar, foto-, audio-, videomateriallar va h.k.) bilan ta’minlash kabi masalalarga alohida vazifalar sifatida e’tibor qaratilgan.

Mazkur qarordan kelib chiqib Buxoro viloyatida OAV sohasida qator ishlar amalga oshirilishiga erishildi:

1. Buxoro viloyatida OAV xizmatlarining samarali vositalariga erishish maqsadida OAV xonalari zamonaviy moddiy-texnika vositalari, shu jumladan, televizor, foto- va video yozib olish vositalari, yuqori tezlikdagi Internetdan foydalanish imkoniyati, zarur dasturiy mahsulotlar bilan ta’minlandi.

2. Hududda amalga oshirilayotgan barcha sohalardagi tub islohotlarning mazmun va mohiyatiga doir axborotlar davlat organlari va tashkilotlarining veb-saytlarida yoritib borilmoqda.

3. Davlat organlari va tashkilotlari ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro hamkorlikda ular faoliyatini yaxshilash maqsadida axborot xizmatlarini uslubiy jihatdan qo‘llab-quvvatlab ularga doimiy yordam ko‘rsatib kelmoqda.

4. Buxoro viloyatida axborot va media makonda keng qamrovli ma’lumotlarni o‘z vaqtida taqdim etish bo‘yicha xalqimizning barcha qatlamlarining ehtiyojlarini inobatga olgan holda o‘rganish va so‘rovnomalar asosida tizimda sezilarli darajada o‘zgarishlarni amalga oshirish davlat organlari va tashkilotlarining axborot xizmatlari, ommaviy axborot

vositalarining faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga alohida vazifa sifatida qaralmoqda.

Bugun respublikada nodavlat OAV tez rivojlanmoqda. Telekanal, radiokanallardan tashqari veb-saytlar ham OAV sifatida roʻyxatdan oʻtkazilmoqda. Bir soʻz bilan aytganda sohada eng tez rivojlanayotgan tarmoqlar ham aynan elektron OAV hisobiga toʻgʻri keladi. Hozirda mavjud nodavlat OAV jami OAVning 60 foizini tashkil etadi [3].

Bugungi kunda butun dunyoda, jumladan mamlakatimizda internet jurnalistikasi keng rivojlanmoqda. Har yili yurtimizda yangi-yangi axborot saytlari roʻyxatdan oʻtkazilmoqda. Mamlakatimizdagi nodavlat teleradiokanallarda faoliyat koʻrsatayotgan 3200 nafardan ortiq texnik va ijodiy xodimlarni oʻz ichiga qamrab olgan Dasturda joylardagi hududiy teleradiokanallar faoliyatiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jamiyat taraqqiyotida muhim rol oʻynaydigan xalqni rozi qilish siyosatining oʻzagida xalq bilan muloqotni kuchaytirish, davlat organlari ochiqligini ta’minlash, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda aholining faol ishtirokini ta’minlash vazifalari turadi. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda keng koʻlamli islohotlarning samarali boʻlishida ommaviy axborot vositalari va jurnalistlarning faoliyati muhim oʻrin tutadi. Buni oʻz vaqtida jadid allomalarimiz ham juda yaxshi tushunib OAVga katta e’tibor qaratishgan edi. Ulugʻ jadid ma’rifatparvari Munavvarqori bu haqida: “Men surgun qilishlariga achinmayman, xalqni matbuotsiz qoldirganlariga achinaman” [4] deganida OAVning qanchalik jamiyat ma’naviy uygʻonishida katta kuchga ega ekanligini ta’kidlamoqchi boʻlgandi.

Sohada kechayotgan ijobiy oʻzgarishlar xalqaro maydonda soʻz erkinligi holatini oʻrganishga ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlar tomonidan ham e’tirof etilmoqda. Oʻzbekiston 2022 yil matbuot erkinligi reytingida 24 pogʻonaga koʻtarilib, 133-oʻrinni egallagani ham shunga bir misol [5].

Xulosa qilib aytganda, kundan-kun ommaviy axborot vositalari soʻz erkinligi va fikrlar xilma-xilligini ta’minlash, hududlarda amalga oshirilayotgan tub islohotlar davomida yoʻl qoʻyilayotgan ayrim kamchilik va muammolarni yoritib chiqishda sezilarli muhim natijalarga erishib bormoqda. OAV xalqning dardini olib chiqadigan, xalq bilan toʻgʻridan toʻgʻri muloqot qiladigan, odamlarni oʻylantirayotgan muammolarga tezkor munosabat bildiradigan minbarga aylanib bormoqda.

**Адабиётлар / Литература / References:**

1. https://xs.uz/uzkr/post/prezident-tabrigi-matbuot-va-ommavij-akhborot-vositalari-khodimlariga
2. A.M.Rasulov Oʻzbekistonda ommaviy axborot vositalarining faoliyati. / SCIENTIFIC PROGRESS. VOLUME 2 | ISSUE 1 | 2021.-B.806.
3. A.M.Rasulov Oʻzbekistonda ommaviy axborot vositalarining faoliyati. / SCIENTIFIC PROGRESS. VOLUME 2 | ISSUE 1 | 2021.-B.806.
4. Avloniy A. Tanlangan asarlar.( Yoshlar agentligi)-Toshkent:Yoshlar nashriyot uyi , 2022.-B.126.
5. https://kun.uz/news/2023/02/28/oav-erkinligi-boshqa-konstitutsiyaviy-huquqlar-royobga-chiqishi-uchun-ham-zarur-ekspertlar-konstitutsiyaga-kiritilayotgan-ozgartiris

SCIENCE PROBLEMS.UZ

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SP1342V3I6/SY2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/6 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).